

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 496 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
<i>Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova</i>	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
<i>Turayeva Gulizahro</i>	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
<i>Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
<i>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li</i>	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
<i>B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev</i>	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
<i>Safarova Nasiba Gulmurod qizi</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
<i>Даниярова Улбосын Куатбаевна</i>	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
<i>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</i>	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
<i>Soliyev Azizbek Kamoldinovich</i>	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
<i>Гольшева Елена Вячеславовна</i>	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
<i>Musayeva Dilnoza Dilshatovna</i>	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
<i>Уринов Адхамжон Акбарович</i>	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
<i>A.Xakimov, X.Xakimov</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
<i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
<i>Xusanova Maloxat Mengnorovna</i>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
<i>Saidova Kamola Xoshimovna</i>	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARINING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	237
Ergashov Botirjon Ergashovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
Ahmadjanov Ilyosbek	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH.....	256
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL	264
Mamadaliyev Akmaljon	
ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ.....	269
Зайналов Джахонгир Расулович	
FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	274
Murodxiyeva Feruza Majidovna	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	280
Abduliyeva Gulshan Maxmudovna	
LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS	285
Razakova Barno Sayfiyeva	
U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS	289
Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov	



IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI	300
Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li	
IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI	304
Karimova Iroda Abdusattarovna	
"MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	311
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva	
ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET	320
Inomiddin Imomov	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ	324
Алиева Эльнара Аметовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ	331
Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна	
ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT	336
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MEKANIZMINING BUGUNGI HOLATI	342
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH	350
Jonikulov Egamberdi Shavkat o'g'li	
GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI	357
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
СОСТОЯНИЕ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА (ВИТАМИН D, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ, ФОСФОР) У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА С ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ НА ФОНЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ДИСФУНКЦИЙ	364
Абдурахмонов Жасур Нематович, Шарипова Олия Аскаровна, Бахронов Шерзод Самиевич	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI	373
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АО ХУДУДГАЗТАЪМИНОТ	377
Хусанов Дурбек Нишанович	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTIDA NAZORAT GABARIT QURILMALARINING ZAMONAVIY HOLATI, TAHLILI VA HARAKAT TAKRIBI GABARITLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH	384
Xidirov Erkin Irgashovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	391
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
GLOBAL DARAJADA FAOLIYAT YURITADIGAN BRONLASH TIZIMLARINING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI	396
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA INFRATUZILMA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI	403
Akmal Shodiyev	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONALARDA LIZING MUNOSABATLARI HISOBİ	408
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	



O'TKIR BRONXOLIT BILAN KASALLANGAN BOLALARDA KATAMNEZNING EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRIDA UZIGA XOS KECHISHI.....	412
Azimova Kamola Talatovna	
THEORETICAL ASPECTS OF STUDYING CONCEPTS RELATED TO YOUTH TOURISM	416
Norboyev Allayor Ismoilovich, Mansurova Zebuniso Abdurashidovna	
THE ESSEINTIAL STRATEGIES WAYS OF SERICULTURE INDUSTRY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	420
Khojimatov Ravshanbek Rasuljonovich	
BLENDED LEARNING PLATFORMASI KANSEPSIYASI, ARXITEKTURASI VA FUNKSIONAL TUZILMASI.....	425
Qobulova Madina Tuxbatillo qizi, Mirzaaxmedov Muxammadbobur Karimberdiyevich	
ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA FAROVONLIGIGA TA'SIRI: IQTISODIY TAHLIL VA EKONOMETRIK BAHOLASH	430
Kuanishbay Berdimuratov	
MARKETING EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHGA OID XORIJIY YONDASHUVLAR TAHLILI	434
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
УЧЕТНО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ОРГАНИЗАЦИИ	443
Бабахонов Бабулжон Шухрат угли	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA SOLIQ IMTIYOZLARINI QO'LLASH MASALALARI.....	449
Ibroximov Muxammadjon Abdullajanovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA LOGISTIKA BOSHQARUVINING RAQAMLI MODEL VA UNING SAMARADORLIGI	453
Olimova Bahora Shuxratovna	
СУЩНОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	463
Муминходжаева Дилноза Рамизовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И АНАЛИТИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ	468
Дурманов Акмал Шаймарданович	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СОЦИАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РЕФОРМ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ЗДРАВООХРАНЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	477
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSIALARNI JALB ETISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI.....	483
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA-INNOVASION JARAYONLARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	489
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	



MINTAQAVIY INVESTITSIYA-INNOVASION JARAYONLARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Xamrayev Quvvat Iskandarovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

“Biznes va boshqaruv” kafedrası dotsenti.

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-6582-1323>

Annotatsiya. Maqolada mintaqaviy rivojlanishda investisiya va innovasiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligi, ularga ta'sir etuvchi iqtisodiy, institutsional, infratuzilmaviy, texnologik va ijtimoiy omillarning kompleks tizimi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari investisiya faolligi oshgani sayin innovasion salohiyat kuchayishi, texnologik yangilanish tezlashishi va mintaqaviy iqtisodiy o'sishning jadallashishini ko'rsatadi. Model va tahlillar asosida boshqaruv sifati, infratuzilma rivoji, inson kapitali hamda raqamli texnologiyalar mintaqaviy innovasion muhitning asosiy determinantlari ekani aniqlangan. Maqola yakunida investisiya–innovasiya mexanizmlarini takomillashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, ilmiy salohiyatni kuchaytirish va innovasiyalarni tijoratlashtirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: mintaqaviy rivojlanish, investisiya jarayonlari, innovasion salohiyat, iqtisodiy o'sish, institutsional muhit, infratuzilma, inson kapitali, texnologik modernizatsiya, investitsiya-innovasiya mexanizmi, raqamli iqtisodiyot.

Abstract. The article analyzes the interrelation of investment and innovation processes in regional development, a complex system of economic, institutional, infrastructural, technological and social factors affecting them. The results of the study show that as investment activity increases, innovation potential increases, technological innovation accelerates, and regional economic growth accelerates. Based on the model and analysis, it was determined that the quality of management, infrastructure development, human capital, and digital technologies are the main determinants of the regional innovation environment. At the end of the article, practical proposals are given on improving investment-innovation mechanisms, modernizing infrastructure, strengthening scientific potential, and commercializing innovations.

Keywords: regional development, investment processes, innovation potential, economic growth, institutional environment, infrastructure, human capital, technological modernization, investment-innovation mechanism, digital economy.

Аннотация. В статье анализируется взаимосвязь инвестиционных и инновационных процессов в региональном развитии, сложная система экономических, институциональных, инфраструктурных, технологических и социальных факторов, влияющих на них. Результаты исследования показывают, что с увеличением инвестиционной активности возрастает инновационный потенциал, ускоряется технологический прогресс и региональный экономический рост. На основе модели и анализа установлено, что качество управления, развитие инфраструктуры, человеческий капитал и цифровые технологии являются основными детерминантами региональной инновационной среды. В заключение статьи даны практические предложения по совершенствованию инвестиционно-инновационных механизмов, модернизации инфраструктуры, укреплению научного потенциала и коммерциализации инноваций.

Ключевые слова: региональное развитие, инвестиционные процессы, инновационный потенциал, экономический рост, институциональная среда, инфраструктура, человеческий капитал, технологическая модернизация, инвестиционно-инновационный механизм, цифровая экономика.

KIRISH


Hozirgi davrda mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan investisiya faolligi va innovasion jarayonlarning qanchalik samarali tashkil etilganiga bog'liqdir. Jahon bozorida raqobatning kuchayishi, texnologik yangilanishlarning jadallashuvi, ishlab chiqarish zanjirlarining murakkablashuvi sharoitida hududlar o'z iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun yangi yondashuvlarga ehtiyoj sezmoqda. Ayniqsa, investitsiyalarni jalb qilish va innovasion faoliyatni rag'batlantirish mintaqalarning iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Shu bois, investisiya va innovasiyaning o'zaro uyg'unlashgan holda rivojlanishi mintaqaviy raqobatbardoshlikning strategik omili sifatida namoyon bo'lmoqda.¹ Mintaqalarda investisiya-innovasion jarayonlarning holati ko'plab ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Iqtisodiy

¹ Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, 1990.

muhitning barqarorligi, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, ilmiy-texnologik salohiyat, davlat boshqaruvi samaradorligi, tadbirkorlik muhitining liberallasuvi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, mehnat bozori sifati va aholining ijtimoiy-demografik tarkibi ushbu jarayonlarning yo'nalishi hamda dinamikasini belgilaydi. Hududning resurs salohiyati va sanoat tuzilmasi, logistika imkoniyatlari, ilmiy-ta'lim muassasalari faoliyati, innovasion infratuzilmalar — texnoparklar, biznes-inkubatorlar, transfer markazlari —ning rivojlanish darajasi ham mintaqaning innovasion faolligi va investitsiyaviy jozibadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.²

Shu bilan birga, global iqtisodiy o'zgarishlar, bozor kon'yunkturasidagi tebranishlar, xalqaro texnologik tendensiyalar, raqobat muhiti va tashqi investitsiya oqimlarining yo'nalishi hududlarning innovasion rivojlanish trayektoriyasini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Mintaqalar orasidagi iqtisodiy tafovutlarning mavjudligi, ularning sanoatlashuv darajasi, ilmiy-texnikaviy rivojlanish sur'atlari va institutsional tizimlarining farqlanishi investitsiya-innovasion jarayonlarga tasir etuvchi omillarning murakkab va ko'p qirrali ekanini ko'rsatadi.

Investitsiya-innovasion jarayonlarni chuqur tahlil qilish ushbu omillarni nafaqat alohida o'rganishni, balki ularning o'zaro bog'liqligi va ta'sir mexanizmlarini kompleks ko'rib chiqishni talab etadi. Chunki investitsiyalar innovasiyalarni yaratish va joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirsa, innovasiyalar esa investitsiya oqimlari uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi.



1-rasm. Mintaqaviy innovatsion-investitsion tizimning funksional modeli³

Ushbu chizma mintaqaviy rivojlanishda investitsiya va innovatsiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Diagrammada jarayon "Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi"dan boshlanib, "Investitsiya-innovatsiya mexanizmi" orqali asosiy tarkibiy omillarga ta'sir ko'rsatishi ko'rsatilgan.

Modelga ko'ra, universitetlarning ilmiy salohiyati, texnologik potensial, tadbirkorlik muhiti hamda davlat siyosati va institutlari mintaqada investitsiya oqimlarining shakllanishiga va texno-innovatsion faoliyatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada texno-innovatsiyalar yaratiladi va ular amaliyotga joriy etilib, innovatsiyalarni

² OECD. Regional Development and Innovation Review. OECD Publishing, 2018.

³ Muallif ishlanmasi



tijoratlashtirish jarayoni yuzaga keladi. Ushbu mexanizm yakunida innovatsion faoliyat mintaqaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Model mintaqaviy rivojlanishda ilmiy salohiyat, texnologik baza, investitsiya muhiti va davlat siyosatining uzviy bog'liqligini ochib beradi.

Shu asosda mintaqaviy investitsiya-innovasion jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning iqtisodiy mazmunini yoritish, o'zaro ta'sir xususiyatlarini ochib berish hamda hududiy rivojlanish strategiyalarida tutgan o'rnini asoslash – mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish uchun zarur ilmiy-amaliy vazifadir. Bu jarayonlarni chuqur tadqiq etish mintaqalarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, innovasion faollikni kuchaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIOTLAR SHARHI

Mintaqaviy iqtisodiyotda investitsiya va innovasion jarayonlarning o'zaro bog'liqligi masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, ularning ilmiy yondashuvlari ushbu jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarning ko'p qirrali va murakkab tizimdan iborat ekanini ko'rsatadi. Adabiyotlarda investitsiya-innovasion faollikni belgilovchi omillar turli tasniflarda uchrasa-da, ularning asosiy mazmuni iqtisodiy, institutsional, infrastruktura, texnologik, ijtimoiy-demografik va hududiy-bozor omillar majmuasiga borib taqaladi.

Ko'plab tadqiqotlarda iqtisodiy omillar — hududning yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat tarkibi, investitsiya salohiyati, moliyaviy barqarorlik, tadbirkorlik muhiti, kredit resurslari mavjudligi va soliq yukining darajasi — investitsiya faoliyati uchun asosiy determinatorlardan biri sifatida ko'riladi. Ayrim mualliflar hududning iqtisodiy salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, innovasiyalarni joriy etish ehtimoli shunchalik kuchli bo'lishini ta'kidlaydi. Boshqa yondashuvlarda esa innovasion rivojlanish iqtisodiy o'sishning sababchisi sifatida talqin qilinadi, ya'ni yangi texnologiyalar investitsiyalarni jalb etadi va hududning iqtisodiy jozibadorligini oshiradi.

Adabiyotlarda muhim o'rin tutgan omillardan yana biri — institutsional muhitning rivojlanganlik darajasidir. Davlat boshqaruvi sifati, normativ-huquqiy barqarorlik, investorlarga yaratilgan kafolatlar, korrupsiyaning past darajada bo'lishi, mulkchilik huquqining himoyalanganligi va tadbirkorlik erkinligi innovasion va investitsiyaviy jarayonlarning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi tadqiqotchilar hududlarda innovasiyalarni rag'batlantiruvchi siyosiy va boshqaruv qarorlarining izchilligi investitsiya oqimlari uchun eng kuchli omillardan biri ekanini ta'kidlaydilar.

Infratuzilma omillari — transport, logistika, energetika, kommunikatsiya va raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi — adabiyotlarda alohida e'tibor bilan o'rganilgan. Sifatli infratuzilmaga ega hududlarda ishlab chiqarish tannarxi pasayishi, tovar va xizmatlar aylanishi tezlashishi, texnologik yangiliklarni joriy etish imkoniyatlari ortishi qayd etilgan. Raqamli infratuzilmaning kengayishi esa innovasion biznes, startaplar, axborot texnologiyalari va bilimga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlarda texnologik omillar ham investitsiya-innovasion jarayonlar tizimida muhim o'rin tutadi. Hududning ilmiy-texnikaviy salohiyati, ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyati, intellektual mulk yaratish darajasi, texnoparklar va innovasion klasterlarning mavjudligi innovasion rivojlanishning asosiy drayverlari sifatida qayd etiladi. Ilmiy izlanishlar turli hududlarda innovasion rivojlanish darajasi ilmiy-tadqiqot salohiyati bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-demografik omillar bo'yicha adabiyotlar ham mintaqaviy innovasiyalarni shakllantirishda aholi soni, yosh tarkibi, mehnat resurslarining malakasi, ta'lim tizimining sifati, inson kapitali rivojlanganlik darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Yuqori malakali kadrlar mavjudligi innovasion g'oyalar, ilmiy ishlanmalar va yuqori samaradorlikka ega texnologiyalarni ishlab chiqish uchun zarur shart hisoblanadi.

Hududiy-bozor omillariga oid tadqiqotlar mintaqada iste'mol bozori sig'imi, raqobat muhiti, tashqi savdo imkoniyatlari, geografik joylashuvning qulayligi, transport yo'laklariga yaqinlik va eksport salohiyatining mavjudligi investitsiya-innovasion jarayonlarning faolligi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ba'zi hududlarda aynan geografik omil — yirik bozorlar, sanoat markazlari yoki xalqaro tranzit yo'llariga yaqinlik — investitsiya oqimlarini belgilovchi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, investitsiya va innovasiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mintaqaviy rivojlanishning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Bir qator tadqiqotlarda investitsiya resurslari innovasiyalarni yaratish uchun moddiy asos bo'lsa, innovasiyalar esa investitsiyalarni jalb etuvchi omil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, hududning strategik boshqaruv modeliga, iqtisodiy siyosatning samaradorligiga va innovasion infratuzilma rivojlanish darajasiga qarab ushbu bog'liqlikning kuchi o'zgarib borishi qayd etiladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar mintaqaviy investitsiya-innovasion jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tahlil qilish zarurligini, ularning iqtisodiy mazmuni va o'zaro ta'sir mexanizmlarini chuqur tushunish mintaqaviy rivojlanishni boshqarish strategiyalarining samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi.

Shu bois mazkur omillarni tizimlashtirish, ularning mintaqaviy rivojlanishga ta'sirini baholash hamda amaliy yondashuvlar ishlab chiqish ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT MATODOLOGIYASI


Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Mintaqaviy investisiya-innovasion jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar mavzusida umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash va iqtisodiy-statistik, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy investisiya va innovasion jarayonlarning rivojlanish dinamikasi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar hududlarning iqtisodiy salohiyati, boshqaruv sifati, infratuzilma imkoniyatlari, inson kapitali, texnologik salohiyat va tashqi iqtisodiy aloqalarning integratsiyalashgan shaklda ta'sir etishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari ushbu jarayonlarning tasodifiy yoki alohida omillar ta'sirida emas, balki ko'p qirrali, tizimli va o'zaro bog'liq omillar majmui orqali shakllanishini tasdiqladi. Ayniqsa, hududlarning investisiya jozibadorligi va innovasion salohiyatidagi tafovutlar mintaqaviy rivojlanishning murakkabligini, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarining chuqur o'rganilishini talab etishini ko'rsatdi.

Investisiya faolligi va innovasion jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, tahlillar shuni ko'rsatdiki investisiyalarning ko'payishi faqat mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish bilan cheklanmay, balki mintaqada innovasion faoliyatni rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biriga aylanadi. Investisiya oqimlari yuqori bo'lgan hududlarda ilmiy-tadqiqot muhitining faollashishi, yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarining kengayishi va ishlab chiqarishning modernizatsiya tezligining oshishi kuzatildi. Bu jarayon, o'z navbatida, innovasion mahsulotlar ulushining ortishiga, korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamining kengayishiga va startap tashabbuslarining faollashuviga sabab bo'ladi.

O'rganilgan hududlarda investisiya faolligining oshishi innovasion faoliyat intensivligining ortishi bilan bevosita korrelyasiya qilishi aniqlandi. Xususan, investisiya resurslari yetarli bo'lgan mintaqalarda texnoparklar, biznes-inkubatorlar, ilmiy-tadqiqot markazlari samarali faoliyat yuritishi uchun moddiy-texnik baza shakllangan. Bu esa innovasion jarayonlarning uzluksizligini ta'minlaydigan "iqtisodiy ekotizim"ning shakllanishiga xizmat qilmoqda.



2-rasm. Mintaqaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi investisiya-innovasion mexanizm⁴

4 Muallif ishlanmasi



Modelda investisiya resurslari tarkibidagi moliyaviy oqimlar (davlat investisiyasi, xususiy sektor investisiyasi, xorijiy investisiyalar, venchur kapital) hamda innovasion qobiliyatning asosiy elementlari (texnologik salohiyat, ilmiy-tadqiqot markazlari, intellektual mulk bazasi, kadrlar va kompetensiyalar, texnologik platformalar) o'zaro ta'sir orqali mintaqaviy iqtisodiy o'sishni shakllantiruvchi mexanizm sifatida yoritilgan.

Boshqaruv sifati va institutsional muhitning innovasiyaga ta'siri, tahlil jarayonida aniqlanishicha, mintaqalarda innovasion faoliyatning jadallashuvi ko'p jihatdan mahalliy boshqaruv organlari tomonidan shakllantirilayotgan institutsional muhitga bog'liq. Normativ-huquqiy barqarorlikning ta'minlanishi, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimining raqamlashtirilishi, ruxsatnomalar olish jarayonining soddalashtirilishi va korrupsiya xavfining kamayishi investorlarning ishonchini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, boshqaruv sifatining yuqori bo'lgan hududlarida:

- ❖ investorlar uchun xavf kichikroq baholanadi;
- ❖ innovasion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha davlat dasturlaridan foydalanish ko'rsatkichlari yuqori;
- ❖ xorijiy investisiya oqimlari barqarorroq shakllanadi;
- ❖ davlat-xususiy sheriklik asosidagi texnologik loyihalar tezroq amalga oshiriladi.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, institutsional omillar innovasiya jarayonlari uchun "katalizator" vazifasini bajaradi va ular samarali bo'lgan hududlarda innovasion ekotizim tez shakllanadi.

Infratuzilma va texnologik baza ta'siri, tahlillar infratuzilmaning investisiya-innovasion rivojlanishdagi o'rni naqadar muhim ekanini ko'rsatdi. Transport-logistika tizimining rivoji, aloqa infratuzilmasining sifati, energiya ta'minotining barqarorligi va raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari innovasion loyihalarning qiymatini, amalga oshirish tezligini va risk darajasini belgilaydigan strategik omillardan biridir.

O'rganilgan mintaqalarda quyidagi tendensiyalar kuzatildi:

- ❖ Internet va raqamli kommunikatsiya tarmoqlari rivojlangan hududlarda ICT sektori va startaplar tezroq shakllanadi;
- ❖ transport infratuzilmasi yaxshilangan hududlarda logistika xarajatlari pasayadi va texnologik uskunalar importi osonlashadi;
- ❖ energetika infratuzilmasi barqaror bo'lgan mintaqalarda ishlab chiqarish modernizatsiyasiga qiziqish ortadi.

Bu esa infratuzilma investisiyalarining bilvosita innovasion rivojlanishni tezlashtirishga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

Inson kapitali va ilmiy salohiyatning roli, inson kapitalining sifati mintaqaviy innovasion rivojlanishning eng muhim strategik resursi sifatida namoyon bo'ldi. Mehnat resurslarining malakasi, aholining ta'lim darajasi, ilmiy-tadqiqot institutlarining salohiyati va oliy ta'lim muassasalari bilan korxonalar o'rtasidagi hamkorlik darajasi innovasion faoliyatning samaradorligini belgilovchi hal qiluvchi omillar sirasiga kiradi.

Tahlil natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- ❖ oliy ma'lumotli kadrlar ulushi yuqori bo'lgan mintaqalarda texnologiyalarni o'zlashtirish tezligi ancha yuqori;
- ❖ ilmiy-tadqiqot markazlari faol bo'lgan hududlarda innovasion g'oyalar oqimi shakllanadi;
- ❖ yoshlar salohiyati yuqori bo'lgan mintaqalarda startap faolligi kuchli bo'ladi;
- ❖ kadrlar malakasini oshirish tizimi rivojlangan hududlarda texnologik yangilanish barqaror xarakter kasb etadi.

Shu bilan birga, malakali kadrlar yetishmovchiligi mavjud bo'lgan mintaqalarda innovasion jarayonlarning sekin kechishi, joriy etilgan texnologiyalarning to'liq ishlatilmasligi va yangi ishlab chiqarish tarmoqlarining shakllanishi bo'yicha sustkashlik kuzatildi.

Bozor imkoniyatlari va tashqi iqtisodiy aloqalar tahlili, hududlarning bozor sig'imi, eksport salohiyati, tashqi savdo aloqalari va xalqaro hamkorlik darajasi investisiya-innovasion jarayonlarning shakllanishiga kuchli ta'sir etishi aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy tuzilma, tashqi bozorlar bilan integratsiyalashgan korxonalar va xalqaro transport yo'laklari yaqinligi innovasion loyihalarning muvaffaqiyatini belgilovchi omillardandir.

Alohida e'tibor shunga qaratish kerakki, tashqi hamkorlik imkoniyatlari keng bo'lgan hududlarda xorijiy texnologiyalarni transfer qilish, qo'shma korxonalar tashkil etish va yangi mahsulot turlarini bozorga chiqarish jarayonlari ancha samarali amalga oshadi.

Integratsiyalashgan natijalar, o'tkazilgan keng qamrovli tahlillar asosida quyidagi ilmiy natijalarga kelindi:

- ❖ Investisiya va innovasiya jarayonlari o'zaro kuchaytiruvchi mexanizmga ega bo'lib, biri rivojlansa ikkinchisi ham jadallashadi.
- ❖ Hududlar o'rtasidagi innovasion tafovutlar iqtisodiy-ijtimoiy tizimlarning kompleks farqlaridan kelib chiqadi, ya'ni faqat bitta omil bilan tushuntirish mumkin emas.
- ❖ Tizimli yondashuv asosida boshqarilgan mintaqalarda innovasion rivojlanish tezroq shakllanadi, boshqaruv sifati esa natijalarni belgilovchi hal qiluvchi komponentdir.

❖ Infratuzilma va inson kapitali ikki asosiy tayanch ustun bo'lib, ular yetarli darajada shakllanmagan mintaqalarda innovasion jarayonlar sekinlashadi.

❖ Global iqtisodiy integratsiya imkoniyatlari innovasion muhitni kuchaytiradi va texnologik yangilanishning asosiy omillaridan biriga aylanadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari mintaqaviy investisiya-innovasion jarayonlar murakkab, o'zaro uyg'unlashgan va ko'p qirrali tizim ekanini to'liq tasdiqladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy investisiya-innovasion jarayonlar bir-birini kuchaytiruvchi, iqtisodiy, institutsional, infratuzilmaviy, texnologik va ijtimoiy omillar majmuasiga tayanuvchi murakkab tizimdir. Investitsiyalarning ko'payishi innovasion faoliyatni rag'batlantiradi, ilmiy-tadqiqot salohiyatini faollashtiradi, modernizatsiya jarayonlarini jadallashtiradi va natijada mintaqaviy iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlarini oshiradi. Shu bilan birga, institutsional muhit samaradorligi, boshqaruv sifati, raqamlashtirilgan davlat xizmatlari va infratuzilma imkoniyatlari investisiya-innovasion faollik darajasini belgilovchi strategik faktorlar sifatida namoyon bo'ladi. Inson kapitalining malakasi va ilmiy salohiyat esa innovasion raqobatbardoshlikning asosiy determinatori sifatida qayd etiladi.

Mavjud tahlillar asosida mintaqalarda investisiya-innovasion jarayonlarni rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, hududlarda innovasion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va ularni mahalliy iqtisodiy salohiyatga moslashtirish zarur. Ikkinchidan, investorlarga qulay muhit yaratish, ruxsat berish jarayonlarini soddalashtirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish mintaqaviy investisiya oqimlarini barqarorlashtiradi. Uchinchidan, transport-logistika, energetika va raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish innovasion loyihalarning samaradorligini oshiradi. To'rtinchidan, ilmiy muassasalar va biznes subyektlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va startap tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash mintaqaning texnologik bazasini mustahkamlaydi. Beshinchidan, innovasiyalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, intellektual mulk himoyasini kuchaytirish va venchur moliyalashtirishni kengaytirish zarur. Umuman olganda, investisiya va innovasiya jarayonlarining uyg'unlashgan tarzda boshqarilishi mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydi va hududlarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
2. Lundvall, B.-Å. National Systems of Innovation. London: Pinter Publishers, 1992.
3. Romer, P. M. "Endogenous Technological Change." Journal of Political Economy, 1990, 98(5), 71–102.
4. Freeman, C. Technology, Policy, and Economic Performance: Lessons from Japan. London: Pinter, 1987.
5. Solow, R. M. "Technical Change and the Aggregate Production Function." Review of Economics and Statistics, 1957, 39(3), 312–320.
6. Dosi, G., Nelson, R., & Winter, S. The Nature and Dynamics of Organizational Capabilities. Oxford University Press, 2000.
7. OECD. Innovation and Regional Development: Policy Review. Paris: OECD Publishing, 2018.
8. Kuznets, S. Modern Economic Growth. Yale University Press, 1966.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent, 2018.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari. Toshkent, turli yillar.
11. Schumpeter, J. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934.
12. Asheim, B., & Gertler, M. "The Geography of Innovation." In: Oxford Handbook of Innovation. Oxford University Press, 2005.
13. Maskell, P., & Malmberg, A. "Localised Learning and Regional Clusters." European Urban and Regional Studies, 1999.
14. Stiglitz, J., & Greenwald, B. Creating a Learning Society. Columbia University Press, 2014.
15. Fagerberg, J., Mowery, D., & Nelson, R. The Oxford Handbook of Innovation. Oxford University Press, 2004.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100